

Organik mineral o'g'itlar olishning yangi texnologiyasini yaratgan olim Shafokat Namozov 80 yoshda

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti olimi, akademik Shafokat Namozov boshchiligida Markaziy Qizilqum nokonditsion fosforitlari, chorvachilik va parrandachilik chiqindilari asosida tuproq unumdorligini oshirishda va o'simliklardan yuqori va sifatli hosil olishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan organik mineral o'g'itlar olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqilgani ko'pchilikka ma'lum.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutida joriy yilning 13-14 dekabr kunlari "Oddiy, murakkab va organik o'g'itlar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalar" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.



Anjumanning kirish qismida olimning bosib o'tgan hayot yo'li, ilmga qo'shgan hissasi hamkasblari, shogirdlari tomonidan e'tirof e'tildi. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator" Shafokat Namozov bugun ham ko'plab yoshlarning ustozidir.



Shafoat Sattarovich Namazov (10.12.1942 - hozirgi kungacha) - [O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti](#) fosforli o'g'itlar laboratoriyasi mudiri, professor, akademik, texnika [fanlari doktori](#).

Hayoti va mehnat faoliyati

Shafoat Sattarovich Namazov 1942 -yili 10 - dekabr kuni [Surxondaryo viloyatining Sho'rchi qishlog'ida](#) jamoa xo'jaligi ishchisi oilasida tavallud topgan. 19 yoshida [Toshkent politexnika institutiga](#) o'qishga kirib, 1967 -yilda tamomlab, oliy ma'lumotli bo'lgan. Institutni bitiriboq, Samarqand superfosfat korxonasida smena boshlig'i lavozimida bir yil davomida ishlagan.

1968 - 1971-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kimyo instituti aspiranti.

1971-1973-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kimyo instituti kichik ilmiy xodimi.

1973-1982-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kimyo instituti laboratoriyasi mudiri.

1982-1986-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kimyo instituti katta ilmiy xodimi.

1986-1990-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kimyo instituti katta ilmiy xodimi, yetakchi ilmiy xodimi, laboratoriyasi mudiri.

1990-1992-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi instituti laboratoriyasi mudiri.

1992-1998-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'g'itlar instituti laboratoriyasi mudiri.

1998-1999-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori ilmiy ishlari bo'yicha o'rinbosari

2000-2002-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori innovatsiya ishlari bo'yicha o'rinbosari

2003-yil - h.v. - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti laboratoriyasi mudiri.

Shafoat Namazovning uch o'g'il va bir qiz farzandlari bor.

Shafoat Namazov fosforli o'g'itlar sohasida bir qator patentlarga ega.